



MARKAZIY OSIYO MINTAQASINING TARIXIY ETNOLOGIYASI

Qosimjonova Nodirabegim Farxodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8005719>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 03-June 2023 yil

KEY WORDS

Etnos, elat, oltoy tillari, etnolingvistik jarayonlar, yozma yodgorliklar, Markaziy Osiyo.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy etnologiyasi tadqiq etiladi. Tarixiy taqdiri bir, xo'jalik madaniy jihatdan umumiy, maishiy turmush tarzi va ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro yaqin mazkur mintaq xalqlari etnografiyasi ko'p jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega. Tarixiy-etnologik va etnik tuzilishi qanchalik barqaror bo'lmasin, Markaziy Osiyo etnoslari zamonlar osha doimo rivojlanib, o'zgarib turgan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ma'naviy madaniyat va umumpsixologik xususiyatlari bilan ham nihoyatda jiplashib ketgan. Markaziy Osiyo tarixi va etnografiyasini moddiy hamda yozma manbalar asosida o'rganish salmoqli natijalarni qo'lga kiritishga asos bo'lmoqda. Markaziy Osiyodagi Delgor-Murgena bo'yidan topilgan ierogliflar, Buyuk Xitoy devori va Turkiy-run yozuvlari bizga mazkur hududni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi

Tarix fani hozirgi kun haqida mulohaza yuritib, taraqqiyot istiqbollarini belgilash maqsadida bashariyat tarixi, uning barcha qirralari va konkretligi bilan o'rganadi. Jamiyat haqidagi boshqa fanlar qatorida tarix fan ham faktlar, voqealar va jarayonlarni manbalar asosida o'rganadi va shu asosda ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari haqidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi. Markaziy Osiyo xalqlari turli tarixiy davrlarda har xil nomlar bilan atalib kelingan. Qadimgi Markaziy Osiyoga nafaqat hozirgi Markaziy Osiyo, shu bilan birga Eronning shimoliy-sharqiy va Afg'onistonning shimoliy hududlari ham kiradi. Tarixiy-etnologik tadqiqotlar ayrim etnos, elat, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining insoniyat tarixida tutgan o'rni va mavqeini aniqlashga yordam beradi. Tarixiy taqdiri bir, xo'jalik madaniy jihatdan umumiy, maishiy turmush tarzi va ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro yaqin mazkur mintaq xalqlari etnografiyasi ko'p jihatdan o'zgaruvchan xarakterga ega. Tarixiy-etnologik va etnik tuzilishi qanchalik barqaror bo'lmasin, Markaziy Osiyo etnoslari zamonlar osha doimo rivojlanib, o'zgarib turgan. Xususan, Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ma'naviy madaniyat va umumpsixologik xususiyatlari bilan ham nihoyatda jiplashib ketgan. Ushbu xalqlarning xususiyatlarini

aniqlash uchun dastlab etnik tarixning ayrim sahifalarini varaqlash zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda lingvistik tasniflash muhim ahamiyatga ega. Mazkur mintaqada yashovchi xalqlarning tillari rang-barang bo'lib, tarixan qadimiy va zamonaviy ko'rinishga ega. Mintaqa aholisining ko'pchiligi Oltoy oilasining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda so'zlashadi. Ushbu guruhga o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur va tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so'zlashadigan kishilar butun mintaqa aholisining taxminan 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi¹. Umuman olganda, turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million nafardan ortiq aholini tashkil etadi. Ayrim lingvistlar turkiy tillarni mo'g'ul hamda tungus-manjur tillari bilan birga qo'shib, oltoy tillari oilasiga birlashtiradi. Jumladan, ye.D.Polivanov va G.Y.Ramstedt kabi tilshunoslarning fikricha, ushbu tillar oilasi koreys va yapon tillarini qo'shish hisobiga kengayishi mumkin. Oltoy nazariyasiga ko'ra, turkiy tilning tarixi oltoy tillari bir til bo'lib tashkil topgan qadimdan, ya'ni oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo tili (asos til) dastlab ikkiga- tungus-manjur va turk-mo'g'ul tillariga, so'ngra turk-mo'g'ul tili ham ikkiga - turk va mo'g'ul tillariga ajralgan. Lekin, turkiy tilning oltoy tillariga genetik aloqadorligi haqidagi masalaga hamon tahmin darajasida qaralmoqda.

Turkiy tillar deganda, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq bo'ylab cho'zilgan ulkan geografik hududda tarqalgan o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarboyjon, turk, gagauz, tatar, boshqird, chuvash, qo'miq, no'g'oy, qorachoy-bolqor, tofa va chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. Eng qadimgi turkiy yozma yodgorlik (Urxun-Enasoy yozuvi) lar VII-XI asrlarga mansub bo'lib, ular asosan, qabrtoshlar ko'rinishida Shimoliy Mo'g'uliston, Qirg'iziston, Yenisey daryosining yuqori qismi, Talas vodiysi va boshqa joylardan topilgan. Brahma va sug'd yozuvlarida bitilgan qadimgi turkiy yodgorliklar ham uchraydi (Sharqiy Turkiston va o'rta Osiyo). Keyinchalik uyg'ur va arab alifbolari asosidagi turkiy yozuv Sharqqa (Qoshg'ar, O'rta Osiyo, Oltin O'rda hududi, Volgabo'yi) va g'arbda (Saljuqiylar davlati, Ozarboyjon, Turkiya va b.hududlar) rivojlandi². Xitoyda yashovchi uyg'urlar XI asrdan hozirgacha arab alifbosi asosidagi yozuvdan foydalanadi. Hind-Yevropa til oilasining eroniy guruhiga tojiklar, balujlar, kurdlar, forslar va boshqalar kiradi. Tojiklardan tashqari yag'nob, shug'non, rushan, vohan, bartang, yozg'ulom, ishkashim, bajo'yr hamda bir qancha boshqa Pomir xalqlari ham mavjud.

NATIJA

Mazkur til o'zbek xalqining milliy va O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Ushbu til lingvistik geneologik tavsifga ko'ra, turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga kiradi. O'zbek tili, asosan, O'zbekiston, shuningdek, qo'shni Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalari, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Xitoyning Shinjon-Uyg'ur muxtor tumani, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. XI-XII asrlardan eski turkiy tildan ajrala boshlagan eski o'zbek tili o'zining tarixiy taraqqiyoti davomida murakkab etnogenetik va etnolingvistik jarayonlarni bosib o'tdi. Ana shu etnogenetik va siyosiy-tarixiy jarayonlar o'zbek tili tarixida ma'lum darajada iz qoldirdi. Tarixan turli ilmiy manbalarda eski o'zbek tili "turkiy", "turkcha", "chig'atoy tili", "chig'atoy

¹ Doniyorov.A.X, Bo'riyev.O.B, Ashirov. A.A. Markaziy osiyo xalqlari etnologiyasi. T.: - 2020. 55-57-betlar.

²Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T. 1994, 60-bet.

turkiysi”, singari nomlar bilan atalib kelgan. Xususan, mashhur sayyoh X.Vamberi (“Chig’atoy tili darsligi”, 1867) va uning izidan bir qator g’arb olimlari XIII-XIX asrlar oralig’idagi eski o’zbek tilini noto’g’ri ravishda “chig’atoy tili” deb nomlagan edi. Vaholanki, mo’g’ullar istilosi davrida hozirgi kunda o’zbeklar nomi bilan yuritiluvchi xalqning madaniyati, tili va adabiyotiga mo’g’ullarning biron-bir sezilarli ta’siri bo’lgan emas, boshqacha ifodalaganda, eski o’zbek tilining Chig’atoy va mo’g’ullarga hech qanday aloqasi yo’q, aksincha, mo’g’ullar Movarounnahrda yashovchi etnoslarning yuksak madaniyatidan bahramand bo’lgan. Buning ustiga, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shoir va mutafakkirlar o’zlari ijod qilgan tilni “turkiy”, “turkcha” deb atab, uni boshqa turkiy tillardan alohida ajratib ko’rsatadilar.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo tarixi va etnografiyasini moddiy hamda yozma manbalar asosida o’rganish salmoqli natijalarni qo’lga kiritishga asos bo’lmoqda. Markaziy Osiyodagi Delgor-Murgena bo’yidan topilgan ierogliflar, Buyuk Xitoy devori va Turkiy-run yozuvlari bizga mazkur hududni o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Eng muhim jihatlardan biri, mazkur masalani yoritishdan avval urug’, qabila, elat, xalq va millat tushunchalariga to’xtalish joiz. Odamlarning ilk to’da tarzidan juft oilalarga ajralishi urug’ deb ataladi. Ayrim urug’larning birlashmasi urug’ jamoasini tashkil etadi. Xalq bu - birinchidan, keng ma’noda muayyan mamlakatning barcha aholisi; ikkinchidan, tarixning turli bosqichlarida jamiyatning progressiv taraqqiyoti vazifalarini hal qilishda qatnashishga qobiliyatli bo’lgan qatlam va sinflarni o’z ichiga oladigan xalq ommasi, ijtimoiy birlik: tarix ijodkori, tub ijtimoiy o’zgarishlarning yetakchi kuchi, tarixning haqiqiy sub’ektidir; uchinchidan, etnik birlik (qabila, elat, millat) larning turli shakllarini ifodalash uchun ishlatiladigan termin. Millat kishilarning barqaror tarixiy birlik, umumiy iqtisodiy turmush tarzi hamda til va hududiy birlik, madaniyat, ong va psixologiyaning o’ziga xosligi asosida shakllangan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

XULOSA

Uzoq vaqt mobaynida Markaziy Osiyoga ko’chib kelgan elatlar o’lkamiz zaminida o’ziga xos moddiy madaniyat yodgorliklarini qoldirgan. Mazkur hududda I ming yillikning o’rtalarida ketma-ket ko’chib kela boshlagan xunn, xion, oq xunn, abdal, bajanak va boshqa turkiy qabilalari mahalliy xalqlar orasida turkiy aholi nufuzi hamda mavqeini mustahkamlaydi. Ammo, aborigen (tub aholi)lar orasida ham apasiak va augasiylar deb nom olgan qadimiy turk elati ham mavjud bo’lgan. Mazkur qabila elat rus solnomalarida ko’p tilga olingan pecheng (bajanak) lar degan fikr ham yo’q emas. Markaziy, Osiyo mamlakatlari xalqlarini ko’p ming yillik qardosh va yaxshi qo’shnicilik rishtalari bog’lab turadi hamda ularni tarix, din, umumiy madaniyat va qadriyatlar birlashtiradi. Mintaqada dunyo tamadduni. rivojiga ulkan ta’sir ko’rsatgan noyob madaniyat va taraqqiyot aloqalari mavjud bo’lib, mazkur omil Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajagi, barqaror rivojlanishi va farovonligini ta’minlashda mustahkam poydevor bo’la oladi. Xullas, Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasini teran o’rganish mintaqadagi an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar xususiyatlari hamda yo’nalishlarini aniqlashtirish va mazkur e’tiqodning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o’ziga xos o’rnini ko’rsatib berishga yaqindan yordam berishi shak-shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T, 1998
2. Abduxaliqov S. Madaniyat tarixi va uning masalasi. - T.: Fan, 1992
3. «Avesto» va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. - Toshkent-Urganch, 2001
4. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
5. Bo'riyev O.B. An'anaviy uy qurish bilan bog'liq rasm-rusumlar. //O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. — Qarshi, 2005
6. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T. 1994, 60-bet.
7. История первобытного общества. — М.: Наука, 1988.
8. История Узбекистана в источниках. — Т.: Фан, 1984.
9. Косвен И. Очерки истории первобытной культуры. - М, 1957.

